



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



AZIMOV Azimbek Azizbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik
va huquqiy siyosat instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0000-0387-4385
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

YOSHLARNING IJTIMOY HUQUQLARINI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL VA NORMATIV-HUQUQIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): AZIMOV A.A. Yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlashning institutsional va normativ-huquqiy rivojlanish bosqichlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 17-31.



2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-002>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari va yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash borasidagi ishlanmalar to'rt asosiy davrga bo'lingan. Birinchi davr (1991-2000)da O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi qonun 1991-yilda qabul qilinib, yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta'lim olish, mehnat faoliyatiga kirish va ijtimoiy himoya masalalarida muhim yuridik asoslarni yaratish orqali yoshlarga oid siyosatning asosiy huquqiy poydevori yaratilgan bo'lsa, ikkinchi davrda (2001-2010) fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan "Sog'lom avlod" va "Yoshlar" yili kabi dasturlar joriy etilgan. Shu bilan birga, 2010-2016-yillarda tizimni takomillashtirish va sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan. To'rtinchi davr (2016-yildan hozirgi kungacha) esa yoshlarga oid siyosatni yangi strategik darajaga ko'tarish va qonunchilikda katta o'zgarishlar qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda, 2017-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" doirasida, yoshlar siyosati yangi tahrirdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun bilan mustahkamladi. Shuningdek, 30 yoshdan kichik yosh oilalar uchun qo'llab-quvvatlash tizimi va yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari alohida e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ijtimoiy huquqlar, huquqiy asoslar, yosh oila, fuqarolik jamiyati, normativ-huquqiy hujjatlar, yoshlarning ijtimoiy faolligi, yoshlar daftari, temir daftar, uyushmagan yoshlar.

АЗИМОВ Азимбек

Старший учитель академического лицея
имени М.С. Восиковой при Ташкентском
государственном юридическом университете,
базовый докторант Института Законодательства и правовой
политики при Президенте Республики Узбекистан
ORCID: 0009-0000-0387-4385
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

ЭТАПЫ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО И НОРМАТИВНО-ПРАВОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРАВ МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

Данная статья анализирует этапы развития государственной политики в отношении молодежи в Узбекистане. Нормативно-правовые документы, механизмы реализации государственной политики и разработки по обеспечению социальных прав молодежи разделены на четыре основных периода. Первый период (1991-2000) характеризуется принятием закона об основах государственной молодежной политики в 1991 году, который создал важные юридические основы для защиты прав и свобод молодежи, обеспечения образования, трудовой деятельности и социальной защиты, став основой правового фундамента молодежной политики. Во второй период (2001-2010) усиливается участие институтов гражданского общества, вводятся программы, направленные на поддержку молодежи, такие как «Sog'lom avlod» и «Yoshlar yili». В 2010-2016 годах проводятся мероприятия, направленные на улучшение системы и обеспечение здорового образа жизни. Четвертый период (с 2016 года по настоящее время) включает в себя повышение уровня молодежной политики и значительные изменения в законодательстве. В этот период в рамках «Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» 2017 года молодежная политика была укреплена новым законом о государственной молодежной политике. Также особое внимание уделено поддержке семей до 30 лет и вопросам трудоустройства молодежи.

Ключевые слова: молодежная политика, социальные права, правовые основы, молодежная семья, гражданское общество, нормативно-правовые документы, социальная активность молодежи, реестр молодежи, «Temir daftar», неорганизованные молодежные группы.

AZIMBEK Azimov

Senior teacher at the M.S. Vosiqova Academic
Lyceum under the Tashkent State University of Law,
Basic doctoral student at the Institute of Legislation and
Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan
ORCID: 0009-0000-0387-4385
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

THE STAGES OF INSTITUTIONAL AND LEGAL-NORMATIVE DEVELOPMENT OF ENSURING THE SOCIAL RIGHTS OF YOUNG PEOPLE

ANNOTATION

This article analyzes the stages of the development of state policy regarding youth in Uzbekistan. Normative-legal documents, mechanisms for implementing state policy, and developments to ensure the social rights of youth are divided into four main periods. The first period (1991-2000) is characterized by

the adoption of the law on the fundamentals of state youth policy in 1991, which created the important legal foundations for protecting the rights and freedoms of youth, ensuring education, labor activity, and social protection, becoming the basis of the legal framework for youth policy. In the second period (2001-2010), the participation of civil society institutions is strengthened, and programs aimed at supporting youth, such as "Sog'lom avlod" and "Yoshlar" year, were introduced. In 2010-2016, activities aimed at improving the system and ensuring a healthy lifestyle were carried out. The fourth period (from 2016 to the present) includes the enhancement of youth policy and significant changes in legislation. During this period, within the framework of the "Action Strategy for Further Development of the Republic of Uzbekistan" of 2017, youth policy was reinforced with a new law on state youth policy. Special attention was also given to supporting families up to 30 years old and issues related to youth employment.

Keywords: youth policy, social rights, legal foundations, youth family, civil society, normative-legal documents, social activity of youth, youth register, "Temir daftar", unorganized youth groups.

Taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish davrida doimo yoshlarga jiddiy e'tibor berib kelindi. Chunki yoshlarimiz davlatchiligimizning barcha bosqichlarida asosiy rol o'ynab kelgan.

O'tgan asrning 10-yillaridan boshlab, davlatchiligimiz tarixida "yosh buxoroliklar" hamda "yosh xivaliklar" kabi o'zida ilm-ma'rifatli yoshlarni jamlagan ijtimoiy-siyosiy muassasalar bo'lgan [1]. Bularning faoliyatlari asosan jamiyatni rivojlantirishga yoshlarni savodxon, ilimli qilish, yoshlarni bilim va malakalarini oshirish uchun jahonning rivojlangan mamlakatlariga o'qishga yuborish bilan birga ularning ta'lim olish huquqlarini kafolatlashgan. Keyinchalik ushbu faoliyat tarixga "jadidchilik harakati" nomi ostida muhrlandi.

Tarixan, yurtimizda yoshlarga e'tibor, ularning ijtimoiy huquqlari bo'lgan ta'lim olish, mehnat faoliyatiga ega bo'lish dolzarb hisoblangan.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, mustaqillik yillarida hayotimizning barcha soha va jabhalarini demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish orqali, ijtimoiy sohani liberallashtirish jarayonlari yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan qonun va qonunchilik normalari qabul qilindi. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi [2] Qonun aynan globallashtirish davrida mamlakatimizni rivojlantirish yo'lidagi barcha o'zgarishlarni amalga oshirish uchun asosiy poydevor sifatidagi yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlashda ahamiyati juda yuqori bo'ldi.

Rus olimi I. Ilinskiy ta'kidlaganidek, "Yoshlarga oid davlat siyosati – bu davlatning ichki ijtimoiy siyosatining insonparvarlik yo'nalishining ajralmas qismidir" [3]. Ya'ni, yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar hayotini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy asosda shakllantirish hamda yoshlar manfaatlari va qadriyatlarining davlat manfaatlari bilan uyg'unligini ta'minlash uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar va maqsadlarning yig'indisidir.

Boshqa sohalar singari, O'zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, ularning ijtimoiy huquqlarini takomillashuvi borasida qo'lga kiritilgan natijalarini sarhisob qilish uchun asos bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini to'rt davrga bo'lib o'rganish lozim [4].

Milliy davlatchilik asoslarini yaratish, taraqqiyot modeli va rivojlantirish tamoyillari, jumladan yoshlarga oid davlat siyosati yo'nalishlari belgilanib olinganligi bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan **dastlabki bosqich** – 1991 – 2000-yillar mamlakatimizda inson, ayniqsa, yoshlar manfaatlari va erkinliklarini ustuvor tamoyilga aylantirish asosida o'zidan ulkan iz qoldirgan tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega o'tish davridir.

Mazkur davrda yoshlarga oid davlat siyosati o'zining dolzarbligini saqlab qoldi, 1991-yilning 20-noyabrda O'zbekiston Respublikasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi [5]. Ushbu qonun, mustaqillikning dastlabki yillarida, mamlakatda yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim huquqiy

asos yaratdi. Mazkur qonun asosida yoshlarga nisbatan davlat siyosatini shakllantirish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, kasb-hunar tayyorlash, ish bilan ta'minlash va boshqa muhim sohalarda samarali davlat siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, bu qonun yoshlarga oid masalalarda davlatning mas'uliyatini belgilab berdi va mamlakatda yoshlarning rivojlanishi, ijtimoiy hayotga integratsiyasi uchun sharoitlar yaratishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasining keyingi yillarda amalga oshirgan keng ko'lamlı islohotlarida asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1993-yil 4-martda ta'sis etilgan dastlabki orden "Sog'lom avlod uchun" deb nomlanishi, 1992-yilda yoshlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning insonparvar normalarini o'zida jamlagan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning parlamentimiz tomonidan ratifikatsiya qilinishi yoshlar masalasiga bo'lgan e'tibor yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi.

1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Oliy Kengashining qarori asosida O'zbekiston Respublikasida yoshlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi davlat-jamoat xizmatini va yoshlar jamg'armalarini tuzish tartibi tasdiqlandi [6]. Ushbu jamg'arma mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq yoshlarning ijtimoiy imkoniyatlarini oshirish maqsadida tashkil etildi.

1992-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish va talabalar, o'quvchi yoshlar hamda mehnatkashlarning umumiy ovqatlanishi tizimida narxlarni barqarorlashtirishni ta'minlovchi qaror qabul qilinganligi yoshlarning sog'lom turmush tarzida hayot kechirishida ularning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash maqsad qilingan. 1993-yil 28-oktabrda "Sog'lom avlod" jamg'armasi Vazirlar Mahkamasining 524-son qarori asosida tuzilishi, 1993-yil 3-dekabrda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal etish to'g'risida"gi 589-son qarori yoshlarni sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishlarida yurtimizning asosiy maqsadlaridan biri hisoblangan.

Shuningdek, yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini rag'batlantirish maqsadida ilk bor 1993-yil 5-fevral sanasida qabul qilingan "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PF-555-sonli Farmoni asosida Davlat stipendiyalari tashkil etildi. Mazkur davlat stipendiyalari tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan va butun o'qish davrida a'lo baholarga o'qigan talabalari uchun magistratura mutaxassisliklari bo'yicha jami 22 ta, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha har bir oliy ta'lim muassasasi uchun bittadan etib belgilandi [7]. 1993-yilda qabul qilingan "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmon asosida tashkil etilgan Davlat stipendiyalari yoshlarni ta'lim olishda rag'batlantirishning samarali vositasi bo'ldi. Bu stipendiyalar tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotgan va o'qish davomida a'lo baholarga ega bo'lgan talabalarga taqdim etilib, ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga yordam berdi. Stipendiyalarning taqsimlanishi oliy ta'lim muassasalarida yuqori natijalar ko'rsatgan talabalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynadi va yoshlarni ilm-fan sohasida faoliyat yuritishga undadi. Bu chora, yoshlarni ilmiy va ta'lim faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan samarali tashabbus sifatida baholanadi. Shu bilan birga Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan 1996-yilgi PF-1425-son Farmoniga binoan yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilim, kasb egallashi uchun "Kamolot" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma — yoshlarni ijtimoiy jihatdan muhofaza etish ishlarida qatnashish, ularning bilim olish, mehnat qilish, siyosiy va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini to'la amalga oshira olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish asosiy yo'nalish sifatida belgilab o'tildi. Iqtidorli yoshlarni chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1997-yil 7-yanvardagi PF-1694-sonli Prezident farmoni bilan "Umid" jamg'armasi tashkil etilganligi yoshlarga bildirilayotgan ishonchning yuqoriligidan dalolatdir. Buning natijasida shu yilning o'zidayoq talabalar Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniyada

tahsil olishga muvaffaq bo'lishgan. 1997-yilda "Umid" jamg'armasining tashkil etilishi iqtidorli yoshlarni chet elda ta'lim olishga rag'batlantirishda muhim qadam bo'ldi. Prezident farmoni asosida yoshlarning xalqaro miqyosda ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ularga bilim olishda ishonch bildirildi va bu orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun kuchli poydevor yaratildi. "Umid" jamg'armasi yoshlarni global bilimga ega qilish va ularni xalqaro tajribaga ega mutaxassislar sifatida shakllantirishga katta hissa qo'shdi. Natijada, talabalar tezda Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniya kabi ilg'or mamlakatlarda ta'lim olish imkoniyatini qo'lga kiritdilar, bu esa yoshlarning rivojlanishiga bo'lgan ishonchning kuchayganligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda qabul qilingan Oila kodeksida (1998), "Ta'lim to'g'risida"gi(1997), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi(1992), "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi(1992), "Vasiylik va homiylik to'g'risida"(1999)gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"(1997) kabi qonun va qonun osti hujjatlaridagi normalar ham bevosita yoshlar tarbiyasi, ular orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarni ish bilan bandligini oshirish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy huquqlarining kafolati bo'lib xizmat qildi. Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati huquqiy asoslar yaratildi. 1991-yil 20-noyabrda "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari" qonuni qabul qilindi, bu yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim poydevor bo'ldi.

Shu davrda "Sog'lom avlod uchun" ordeni, "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning ratifikatsiyasi, "Sog'lom avlod", "Umid" va "Kamolot" jamg'armalarining tashkil etilishi yoshlarning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida rivojlanishini qo'llab-quvvatladi.

Davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar va farmonlar yoshlarning huquqlarini himoya qilib, ularning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun zaruriy asoslarni yaratdi.

Ikkinchi bosqich – 2001-yildan keyingi yillar, ya'ni "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan 2010-yilgacha davrni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – inson va uning manfaatlarini hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va ulkan bunyodkorlik ishlarining asosiy mezoniga aylangan, yoshlar siyosati dolzarb masalaga aylanayotgan, shu asnosida, yoshlar siyosati sohasida faol demokratik o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan davrdir. Ushbu davrda yoshlar bilan ishlashda nafaqat davlat muassasalari, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtirok etayotganini qayd etish joiz. Bu mexanizmlar, o'z navbatida, mustaqillik yillarida "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" Davlat dasturlarini samarali amalga oshirishning omili bo'ldi. Ushbu dasturlar doirasida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yigit-qizlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 2003-yildan boshlab Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" kabi sport musobaqalari o'zaro bog'liq holda tashkil etilishidan maqsad yoshlarda sportga bo'lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o'quvchi va talabalarni sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb qilishga qaratildi. Mazkur sport musobaqalarining izchil va o'zaro bog'liq holda tashkil etilishi yoshlar o'rtasida sportni hayot tarziga aylantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Eng asosiysi, ushbu tizim maktab bosqichidan boshlab oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan uzluksiz sport zanjirini shakllantirdi. Bu esa iqtidorli sportchilarni erta aniqlash, ularni bosqichma-bosqich saralash va professional sportga yo'naltirish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan, "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, milliy sport zaxirasini yaratish hamda jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy loyiha sifatida baholandi.

Mazkur davrda Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish maqsadida "Iste'dod" jamg'armasi (2003), yosh iste'dodlar uchun "Nihol" (2000) mukofoti ta'sis etildi. Bunday mukofot hamda jamg'armaning ta'sis etilishi yoshlarning madaniy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yilganligidan dalolatdir.

Qolaversa, mazkur davrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar tomonidan "Yoshlar bilan ishlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolandi. Ushbu shartnoma yoshlar bilan ishlashda o'zaro tajriba almashish, davlatlar o'rtasida samarali hamkorlik va qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Bu yoshlar siyosatining izchil rivojlanishini ta'minlab, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 31-oktabrdagi PQ-213-sonli "O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga [8] binoan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tagan va to'lov-kontrakt shakli bo'yicha o'qishga qabul qilingan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yildi. Mazkur qaror yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish va ularning ta'lim olish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bu orqali yoshlarning harbiy xizmatdagi ishtirokini rag'batlantirish va ta'lim olish jarayonida qo'shimcha yordam ko'rsatish maqsad qilingan. "Kamolot" ijtimoiy harakatiga ko'maklashish maqsadida hududlarda "Yoshlar ijtimoiy xizmat markazlari" tashkil etildi, ushbu markazning asosiy vazifasi yoshlarning oldida turgan ijtimoiy muammolarni yechish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish ko'zda tutilgan. "Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida"gi Qonun, "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturiga muvofiq va yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish ishlari ilk bor keng ko'lamli tartibda yo'lga qo'yildi. Bunda yosh oilalarga ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish yo'li bilan uy-joy sotib olish yoki qurish, uy xo'jaligini yo'lga qo'yishda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash; kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan yoshlarga, shu jumladan nikohdan o'tish va to'y marosimlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu kabi amalga oshirilgan tizimli harakatlar yurtimizda kambag'al oilalar ko'rsatkichini tushirishga xizmat qildi. 2007-2008-yillar davomida Nukus shahrida, har bir viloyat markazi va Toshkent shahrida foydalanilmayotgan yotoqxonalar, uy-joylar va ko'p xonadonli uylardagi bo'sh turgan xonalar negizida oilaviy yotoqxonalar va yosh oilalar uchun imtiyozli narxlarda ijaraga beriladigan kvartiralar tashkil etildi. 2007-yilda yoshlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qilish; uy-joy qurish, ta'mirlash va sotib olish (ijaraga olish); uy-xo'jaligini yo'lga qo'yish; mebel va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar sotib olish uchun 50 milliard so'm ajratildi [9]. Ushbu mablag'larning yosh oilalar uchun ajratilishi yosh oilalarning barqaror turmush kechirishini ta'minlashga xizmat qildi.

"Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli asosda kreditlar berish tartibi to'g'risida"gi qonunchilik hujjatida birinchi bor *yosh oila* tushunchasiga ta'rif berilib, ya'ni *yosh oila* deb er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol) ekanligi qayd etildi [10]. Shuningdek, yoshlar iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash uchun ipoteka va iste'mol kreditlari ajratildi, yosh tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy yordamlar ko'rsatildi. 2008-yilda "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi buning natijasida "Yoshlar" dasturi qabul qilinib, yana bir yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limda o'quvchi tayanch doktorantlar uchun davlat stipendiyalari joriy etildi. Bu esa Oliy ta'limdan keyingi ta'limning yanada samarali faoliyatini hamda ilmiy izlanuvchilar sonini oshishiga olib keldi.

2001–2010-yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqich O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining konseptual va institutsional jihatdan yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan davri sifatida tavsiflanadi. Mazkur davrda inson va uning manfaatlari davlat siyosatining ustuvor mezoniga aylantirildi hamda yoshlar masalasi demokratik islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etildi.

Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundan iboratki, yoshlar siyosati alohida ijtimoiy yo'nalish sifatida emas, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil modernizatsiya qilish jarayonining muhim elementi sifatida shakllandi. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish konsepsiyasi" doirasida yoshlar bilan ishlash mexanizmlari takomillashtirildi, davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtiroki ta'minlandi. Bu esa yoshlar siyosatini amalga oshirishda **ko'p subyektli boshqaruv modelining** shakllanishiga zamin yaratdi.

Tojik siyosatshunosi Q.Miraliyonning fikriga ko'ra, Yoshlar siyosatini amalga oshirish **vertikal, gorizontal, intersektoral va interdiscipliner** yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladi [11].

Har bir nazariyaning o'ziga xos ahamiyati bor va ularning kombinatsiyasi yoshlarni jalb qilish uchun samarali va foydali strategiyani tashkil qiladi.

Mazkur davrda qabul qilingan "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" kabi Davlat dasturlari yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning kompleks mexanizmini yuzaga keltirdi. Ushbu dasturlar doirasida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish hamda mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirildi. Ilmiy va ijodiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Nihol" mukofoti hamda "Iste'dod" jamg'armasining tashkil etilishi yosh kadrlar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Oliy ta'limdan keyingi bosqichda tayanch doktorantlar uchun davlat stipendiyalarining joriy etilishi esa ilmiy-intellektual zaxirani shakllantirishga xizmat qildi. Ijtimoiy himoya mexanizmlarining kengaytirilishi, yosh oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish, imtiyozli ijara uy-joylar tashkil etish, yosh tadbirkorlikni moliyalashtirish kabi chora-tadbirlar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratildi. "Yosh oila" tushunchasining normativ-huquqiy jihatdan aniq belgilanishi yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Shuningdek, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatining kengaytirilishi, Yoshlar ijtimoiy xizmat markazlarining tashkil etilishi hamda harbiy xizmatni o'tagan yoshlarga imtiyozlar berilishi yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, 2001–2010-yillar O'zbekistonda yoshlar siyosatining institutsional mustahkamlanishi, normativ-huquqiy bazasining takomillashuvi va amaliy mexanizmlarining kengayishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqich keyingi davrlarda yoshlar siyosatini modernizatsiya qilish, uni strategik darajaga olib chiqish hamda yoshlarni davlat va jamiyat taraqqiyotining faol subyekt sifatida shakllantirish uchun mustahkam nazariy va amaliy poydevor yaratdi.

Uchinchi bosqich, 2010-yildan, ya'ni "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etila boshlanganidan 2016-yil oxirlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda birinchi Prezident I.A.Karimov rahbarlik qilgan davrda xalqimiz taraqqiyoti va yoshlarga oid davlat siyosatida muhim qonunchilik hujjatlari qabul qilinganligi va keng qamrovli amaliy ishlar olib borilganligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk va jismonan sog'lom qilib tarbiyalash, ularni milliy g'oya hamda an'analar ruhida voyaga yetkazishni nazarda tutuvchi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi doirasida yoshlarning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar va dam olish madaniyatining yangi zamonaviy an'alarini yaratish

maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida “Favvoralar sayli” yoshlar ommaviy-madaniy tadbirlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 101-sonli qaror qabul qilindi [12]. Ushbu qaror asosida yoshlarning ijtimoiy huquqlari sirasiga kiruvchi dam olish huquqlari kafolatlandi. Yoshlarni tadbirlarga tashkiliy asosda olib kelish va ularni o‘z manzillariga xavfsiz yetkazib qo‘yish, shuningdek, tadbir davomida maxsus ishlab chiqilgan ssenariylar asosida ularning faol va mazmunli madaniy dam olishini ta‘minlash yuzasidan batafsil reja-jadvallar ishlab chiqildi. Mazkur yilda yoshlarning ma‘daniy ijodiy faoliyatlariga keng imkoniyatlar yaratib beruvchi “Yoshlar madaniyat va san‘at markazi” tashkil etildi. Ushbu markaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi yoshlarning madaniyat va san‘atga mehrini uyg‘otishga sabab bo‘ldi.

2014-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ–2133-son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturining 83-bandini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzurida Respublika o‘quvchi-yoshlar markazini tashkil etildi [13]. Ushbu markaz faoliyatining asosiy vazifasi sifatida Respublika umumta‘lim maktablari o‘quvchilari, jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ta‘til vaqtida bilim hamda malakalarini takomillashtirish, bo‘sh vaqtini maqsadli va mazmunli o‘tkazishini ta‘minlash, shu bilan birga ularning sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan zarur shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu davrda (2010–2016-yillar) mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Bu yillarda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish hamda mazmunli dam olishini ta‘minlashga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirildi. Xususan, “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi, “Favvoralar sayli” kabi ommaviy-madaniy tadbirlar, shuningdek, Respublika o‘quvchi-yoshlar markazining tashkil etilishi yoshlarning ijtimoiy himoyasi va bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish borasidagi institutsional choralar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu bilan birga, mazkur bosqichda amalga oshirilgan chora-tadbirlar ko‘proq mavjud tizimni takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash xarakteriga ega bo‘lib, tub va keng ko‘lamli tizimli islohotlar kuzatilmadi. Davr asosan barqarorlikni saqlash, ilgari boshlangan siyosiy va ijtimoiy yo‘nalishlarni davom ettirish bilan tavsiflanadi hamda ma‘lum ma‘noda nisbatan turg‘un rivojlanish bosqichi sifatida baholanishi mumkin.

To‘rtinchi bosqich, 2016-yil oxiridan bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Aynan ana shu davr yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan mamlakatimiz taraqqiyotini yangi yo‘nalishlarini ochib berdi. Davlatimiz rahbari tomonidan asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan 2017-2021-yilgacha hamda 2022-2026-yilgacha mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida hayotimizning barcha sohalari kabi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi ishlarimiz uchun muhim rivojlanish dasturi, shuningdek, yoshlarga ijtimoiy huquqlari kafolatini belgilab beruvchi qonunchilik hujjatlari ham faoliyatimiz dasturulamali ekanligi shubhasizdir. Ushbu strategiya doirasida yoshlarga oid davlat siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar va qonunchilik hujjatlari, yoshlarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egaligi bilan farqlanadi. Harakatlar strategiyasining 2017-2021 va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan qismlari, yoshlarni rivojlantirish va ularga zarur sharoitlar yaratishda davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Bu, yoshlarning ta‘lim, ijtimoiy huquqlar va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan asosiy chora-tadbirlarni ko‘rsatdi.

To'rtinchi davr – yoshlarga oid asosiy qonunchilik hujjatlariga tizimli yangi o'zgarishlar olib kirgan bosqich sifatida maydonga kirib keldi. Bu “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi ya'ni yoshlarning barcha huquq va erkinliklarini o'zida mujassam qiluvchi yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishi bilan namoyon bo'ldi. Ushbu qonun yoshlarga keng huquq imkoniyatlar ochib berdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi davlatimiz tomonidan Yoshlarga oid davlat siyosatida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berdi. Ushbu qonunda yoshlarga oid alohida kategoriyalar ishlab chiqilib, ushbu tushunchalarga atroflicha ta'rif berib o'tilgan. Ushbu maxsus kategoriyalarga “yoshlarga oid davlat siyosati”, “yosh mutaxassis”, “yoshlar tadbirkorligi”, “yoshlar” kabi tushunchalar kiritilgan. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatining maxsus prinsiplari ishlab chiqilib, bularga a) ochiqlik va shaffoflik; b) yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi; c) yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; d) ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi; d) yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi kabilari belgilangan.

Birinchidan, ochiqlik va shaffoflik prinsipi davlat organlari faoliyatining jamoatchilik uchun ochiq bo'lishini, qabul qilinayotgan qarorlar va dasturlar yuzasidan axborotning erkin taqdim etilishini ta'minlaydi. Bu esa yoshlarning davlat siyosatiga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy faollikni oshiradi.

Ikkinchidan, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning bevosita ishtiroki ularni passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida e'tirof etishni anglatadi. Bu prinsip yoshlarning tashabbuskorligi, mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish innovatsion g'oyalar, tadbirkorlik faoliyati hamda ijtimoiy loyihalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada yoshlarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligi ortadi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni mustahkamlanadi.

To'rtinchidan, ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi yosh avlodni milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu esa jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim omilidir.

Beshinchidan, yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi prinsipi ularning teng huquqliligini kafolatlaydi hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, mazkur prinsiplar yoshlarga oid davlat siyosatining demokratik, insonparvar va inklyuziv xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi hamda yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratadi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda 13 ta asosiy yo'nalish belgilab o'tilgan. Ushbu yo'nalishda yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash ustuvor maqsad sifatida ko'riladi. Jumladan, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'nalishi yoshlarni jamiyatning to'laqonli subyekt sifatida e'tirof etadi. Huquqiy kafolatlarining mustahkamlanishi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi va ularning manfaatlarini himoya qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlashda esa tibbiy xizmatlar, profilaktika va sog'lom turmush targ'iboti yoshlar salomatligini mustahkamlashda muhim omildir. Sog'lom avlod – barqaror jamiyat poydevoridir. Ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash yo'nalishida sifatli ta'lim yoshlarning raqobatbardoshligini belgilaydi. Ta'lim tizimining ochiqligi va inklyuzivligi ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yoshlarni ishga joylashtirish va bandligi ta'minlash masalasi yoshlar siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mehnat bozoriga integratsiya yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan. Shuningdek, “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunda ko'p bora uyushmagan yoshlar tushunchasi tilga olingan, lekin uyushmagan yoshlar tushunchasi maxsus kategoriyalarda yoki mazkur qonuning normalarda ochib berilmagan. Shu sababli, ***O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi***

O'RQ-406-sonli qonunning 3-moddasi birinchi qismiga qo'shimcha xatboshi sifatida ushbu kategoriyaning mohiyatini ochib beruvchi norma kiritish lozim.

Kirnitsky ta'kidlashicha, yoshlar – bu yoshga oid xususiyatlar, ma'lum bir ijtimoiy maqom va dinamik madaniy hamda ijtimoiy identifikatsiyaga ega bo'lgan ijtimoiy-demografik guruhdir. Yoshlar ijtimoiylashish jarayonida faol agentlar bo'lib, shaxsiy va kollektiv identifikatsiyalarini ijtimoiy normalar va madaniy qadriyatlar orqali shakllantiradilar [14]. Darhaqiqat, yoshlar bu jarayonda faollik ko'rsatib, o'zi kimligini va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda ijtimoiy va madaniy ta'sirlar asosida rivojlanadilar.

Sotsiolog Muhammad Tagi Shayxni aytishicha, har bir jamiyatda yoshlar eng birlashgan, ta'sirchan va shu bilan birga ta'sir qiluvchi guruhdir. Shuningdek, ta'lim, ilm-fan va axloqiy sohalarga maqsadli tarzda investitsiya kiritish yoshlarning rivojlanishi va dinamikasida samarali rol o'ynaydi [15]. Ularning rivojlanishi uchun ta'lim, ilm-fan va axloqiy sohalarga investitsiya kiritish juda muhim. Bu sohalarga yo'naltirilgan resurslar yoshlarning kelajakdagi ijtimoiy va madaniy o'sishi, shuningdek, jamiyatdagi o'rni va roli uchun poydevor yaratadi.

Yoshlar – bu vaqt sari o'zgaradigan obyektidir, juda harakatchan bo'lgani sababli takror tadqiqotlar, retrospektiv va longityud strategiyalar qo'llaniladi [16]. Longityud (inglizcha uzoq, muddatli) tadqiqotlar uzoq vaqt davomida ma'lum bir insonlar guruhi, ularning hayot yo'llari, ijtimoiylashuv jarayonlari, professional karyera, oilaviy hayotini shakllantirishini o'rganuvchi tadqiqotlardir.

Siyosatshunos olim Abrorov tomonidan tadqiqotning bu turi vaqt o'tgan sari mazkur toifadagi insonlarni shakllanishi, ularning orientatsiyalari, qarashlari, motivlarining o'zgarishini o'rganib borishga, hayot yo'lida ularning qadriyatlari va motivatsiyalarining o'zgarishini qanday ta'sir o'tkazishini bilishga yordam berishi ta'kidlangan [17].

Yoshlar milliy identifikatsiya talablariga rioya qilinishiga qarab, faol yoki nafaol, **uyushgan yoki uyushmagan** toifalariga ajratiladi. **Uyushmagan yoshlar** deganda, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ishsiz, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan nafaol qatlami tushuniladi. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar muammosi uchun davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatimizning har bir a'zosi bevosita mas'ul ekanligini qayd etilishi ham masalaning o'ta dolzarbligini ifodalaydi [18]. S. Verb va N. Nay tomonidan ishlab chiqilgan **“Ishtirok modeli”** yoshlarning ijtimoiy- siyosiy faoliyatini tahlil qilishda asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi [19]. Bu modelda yoshlarning faoliyati bir necha bosqichlarda rivojlanadi, unda ular boshlang'ich bosqichdan boshlab ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'z rolini o'ynashga kirishadilar. Qolaversa, ishtirok modeli, yoshlarning faolligini jamiyat tomonidan qadrlash va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini amalga oshirishga yordam beruvchi mexanizmlar sifatida ham qaraladi.

Bugunimiz va kelajagimizni belgilab beruvchi shaxslar bular yoshlarimiz ekanligini unutmasligimiz lozim. Zero, “farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir” [20]. Prezidentimiz tomonidan aytilgan fikrlar asosida yoshlarga e'tibor borgan sari kuchayib bormoqda. Jamiyatimizda yoshlar asosiy kuch sifatida taraqqiyotimizning poydevorini belgilab beradi. Shu asnosida, yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan tizimli ravishda shug'ullanish, ularda yuzaga kelgan muammolarni to'g'ri anglagan holda, bartaraf etish lozim. Uyushmagan yoshlar – faol ijtimoiy hayotdan chetda qolgan o'g'il-qizlardir. Barcha norozilik va ko'ngilsizlikning ham keltiruv chiqaruvchilari ushbu toifadir. Shunday ekan, bu muammoni oldini olish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-5106-son Farmoni bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari qoshida – “Uyushmagan yoshlar jamiyati” tuzilib, Respublika miqyosida har bir yosh otaliqqa olindi [21]. Ushbu farmonning 12-bandida yoshlar markazlari va

zamonaviy yoshlar kinoteatrlarini, shuningdek, yoshlarni, ayniqsa, ularning uyushmagan qismini **6 oygacha bo'lgan muddatda kasb-hunarga to'lovsiz o'qitish markazlarini** tashkil etish dasturi loyihasi ishlab chiqildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi muassisligidagi Respublika yoshlar markazi 2017-yil 21-sentyabrda 768-son bilan qayta davlat ro'yxatidan o'tdi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Ijroiya Qo'mitasining 2018-yil 23-yanvardagi 01-04/176-sonli qaroriga ko'ra Respublikamizning barcha hududlarida Markazning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishining bosh sababi – har bir uyushmagan yosh avlodni qiynayotgan masalalarga be'etiborlik ularning turli illatlar girdobiga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Yoshlarning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarini yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlovchi institutlar tomonidan tizimli ravishda tashkil etilishi, kelgusida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etadi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni yanada demokratlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida aholining asosiy salmog'ini tashkil etuvchi yoshlarning ijtimoiy faolligi va bandligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur davrda “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida hududlar bo'yicha joriy, yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar ixtisosliklarini aniqlab, yoshlarni bandligini ta'minlash kabi vazifalar belgilandi. Ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirishda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” [22] jamg'armasi tuzildi. Bu chora-tadbirlar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va ularga kelajakda muvaffaqiyatli ish topish imkoniyatlarini yaratish uchun zarur. Jamg'arma tashkil etilishi esa yoshlar bandligini ta'minlashga yo'naltirilgan resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Bu dastur yoshlarning rivojlanishi uchun kuchli asos bo'lib, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga rag'batlantiradi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlarni ishlab chiqish va ularni bartaraf etish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi hamda hududlarda boshqarma va bo'limlari tuzish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda mamlakat yoshlari bilan uchrashuvida ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash doirasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ulardagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish maqsadida “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” [23] tashkil etildi. “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo'shimcha uy-joy qurishga 33 million so'mgacha garovsiz kredit ajratish tartibi belgilandi. Yoshlar daftari” jamg'armasi tashkil etilishi orqali moddiy ahvoli og'ir va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks mexanizm yaratildi [24].

Ushbu tizim orqali yoshlar uchun bir martalik moddiy yordam, uy-joy ijarasi subsidiyasi, kontrakt to'lovlarini qoplash, haydovchilik kurslari xarajatlari, davolanish, xorijiy til va kasb-hunar o'qish xarajatlarini moliyalashtirish kabi aniq manzilli yordam turlari joriy etildi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan yoshlar hamda yangi turmush qurgan yosh oilalarga alohida imtiyoz va kafillik mexanizmlari belgilangan bo'lib, bu ijtimoiy adolat tamoyilining amaliy ifodasidir.

Shu bilan birga, Mirandaning fikricha, yoshlar uchun bir martalik moddiy yordam, ta'lim, uy-joy va sog'liqni saqlash kabi moliyaviy yordam turlarining o'rni haqida so'z yuritadi. U yoshlarni qo'llab-quvvatlashning muhimligini va bunday dasturlar orqali yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Cuervo bu dasturlarni dunyoning turli mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli amaliyotlar bilan solishtiradi va ular orqali yoshlarning iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy integratsiyasiga qanday erishilganini ko'rsatadi [25].

Shuningdek, BMTning “Yoshlar strategiyasi – 2030” dasturi doirasida BMT tizimida yoshlar bo'yicha global majburiyatlarni beshta asosiy sohada amalga oshirishda davom etmoqda: (a)

hukumatlarni siyosatni belgilashda qo'llab-quvvatlash; (b) yoshlar uchun dasturlar, loyihalar va hamkorliklarni tashkil etish; (c) yoshlar masalalarini targ'ib qilish va jamoat kommunikatsiyasida yetakchilik qilish; (d) yoshlar bo'yicha ma'lumot va dalillarni ishlab chiqish va ulashish, yoshlar bilan bog'liq ishlar uchun standartlar belgilash; (e) manfaatdor tomonlar salohiyatini oshirish va yoshlar bo'yicha bilim almashish [26]. Mazkur sohalar doirasida yurtimizda bosqichma-bosqich ustuvor vazifalar belgilanib, ko'zlagan natijalarga erishishga harakat qilinmoqda.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tuzilmasida 16 shtat birligidan iborat Fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi tashkil etildi. Yoshlarni xorijda mehnat faoliyati bilan band bo'lish imkoniyatini oshirdi. Ushbu yilda "Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi" davlat muassasasi tomonidan yoshlarni xalqaro IT sertifikatini olish hamda unga tayyorgarlik xarajatlari qoplab beriladigan bo'ldi. Shuningdek, yoshlarga yer ajratish orqali ham yoshlarning bandligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'riladi. 2025-yilda "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali ijtimoiy shartnoma tuzish orqali "Yoshlar daftari" jamg'armalaridan taqdim etiladigan 10ta muhim ijtimoiy yordamlar ro'yxati shakllantiradi [27]. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan yoshlarni chet tillariga o'qitish va xorijda ishlashga tayyorlash markazining tashkil etilishi, yoshlarning xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini oshirdi. Shuningdek, "Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi" tomonidan yoshlarni xalqaro IT sertifikati olish uchun qo'llab-quvvatlash, yoshlarni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Yoshlar uchun yer ajratish orqali bandlikni ta'minlash ham samarali chora sifatida qaraladi. 2025-yilda esa "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun 10 ta muhim ijtimoiy yordamning taqdim etilishi, yoshlarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga yordam beradi. Bu chora-tadbirlar yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llari hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash muhim ijtimoiy vazifa sifatida belgilandi. To'rtinchi davr – yoshlarning ijtimoiy huquq va erkinliklarini kafolatlagan davr sifatida belgilanadi. Yoshlar tushunchasi mazkur davrda chuqurroq o'rganilib, ularning milliy identifikatsion jihatdan uyushgan va uyushmagan yoshlar toifasiga ajratildi. Lekin olimlar tomonidan uyushmagan yoshlar tushunchasiga ta'rifda ba'zi bir juz'iy kamchiliklar mavjud. Jumladan, E.O.Kadirov o'zining tadqiqot ishida "uyushmagan yoshlar" tushunchasiga o'z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyat yaratgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nafaol tarzda samarasiz amalga oshirayotgan, hech qayerda o'qimayotgan, ishlamayotgan yoshlar guruhini anglatishini qayd etgan [28]. Vaholanki, uyushmagan yoshlarning barchasida ham ijtimoiy faollik, huquqiy ong past bo'lavermaydi, o'z navbatida, uyushmagan yoshlar orasida ijtimoiy faolligi, siyosiy ong va madaniyat darajasi yuqori bo'lganlarini ham uchratish mumkin. Shu bilan birga, Qozog'iston Respublikasining "Davlat yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida ushbu toifaga quyidagicha ta'rif berilgan: Vaqtincha band bo'lmagan yoshlar – ta'lim muassasalarida o'qimayotgan, ishlamayotgan va professional tayyorgarlik yoki qayta tayyorlashdan o'tmayotgan, vaqtincha nafaol bo'lgan yoshlar tushuniladi [29], qolaversa, ushbu qonunchilikda 10 dan ortiq asosiy tushunchalar ta'rifi ham mavjud. **Muallif tomonidan taklif sifatida 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RB-406-sonli qonunga uyushmagan yoshlar yoki vaqtincha band bo'lmagan yoshlar kategoriyasini kiritish lozim. Ushbu termin Xalqaro qonunchilikda ham NEET (Not in Education, Employment, or Training) tushunchasi [30] bilan mashhur.**

Shuningdek, o'rganishlarimiz davomida "yosh oila" kategoriyasiga O'zbekistonda yosh oila chegarasini 30 dan 35 yoshga uzaytirish taklif qilinmoqda. Bu haqda "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portalida petitsiya paydo bo'lgan. Qonunda 30 yoshdan oshmagan shaxslar yosh oila

toifasiga kiritilishi belgilangan. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston qonunchilik hujjatlarida yoshlar toifasi 14 yoshdan 35 yoshgacha etib belgilangan. 2023-yildan Qozog'iston hukumati yosh toifasidagi chegarani 30 yoshdan 35 yoshga oshirdi [31]. Shu bilan birga Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi va Davlat kengashi tomonidan e'lon qilingan rejada "yoshlar" tushunchasi 14 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan shaxslarni nazarda tutadi. Janubiy Koreyada 19-34 yosh oralig'i bo'lsa, Singapurda esa 15-34 yosh oralig'idagilar yosh hisoblanadi.

Statistikaga qaraganda nikoh qurish yoshi yildan-yilga oshmoqda, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar-sentabr oylari davomida nikohlarda erkaklarning o'rtacha yoshi 27,4ni tashkil etmoqda. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida, FHDYo organlarida respublika bo'yicha 31 775 ta nikoh holatlari qayd etilgan. Qayd etilgan nikohlarda erkaklarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishida 31-yoshdan 40 yoshgacha bo'lganlar 13,6 % ko'rsatmoqda. 20-30 oralig'ida esa 78% [32]. Ma'lumki, yosh oila toifasi bizga ba'zi bir imkoniyatlar, jumladan, daromad solig'i, kreditlar, uy-joy olish kabi munosabatlarda imtiyozlar taqdim etadi. Hozirgi kunda yoshlarimiz o'rtasida turmush qurish kechikib bormoqda. Bunga sabab turmush qurayotgan insonlar, eng avvalo, moliyaviy holatini yaxshilab, keyin turmush qurishni o'ylaydi va bu turmush qurishni kechikishiga olib keladi, aksar hollarda 30 yoshdan keyin turmush qurayotganlar ham kam emas.

Shuning uchun, yosh oila chegarasini 30 yoshdan 35 yoshga ko'tarish taklifi muallif tomonidan bildirilmoqda. Ushbu taklif amalga oshirilsa, yosh oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida yanada ko'proq imkoniyatlar yaratiladi.

Tahlil qilingan to'rt bosqich shuni ko'rsatadiki: 1991–2000-yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining dastlabki normativ poydevori yaratildi, ijtimoiy himoya va ta'limni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari shakllandi; 2001–2010-yillarda esa ushbu siyosat konseptual va institutsional jihatdan kengayib, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki kuchaydi hamda yoshlar uchun kompleks davlat dasturlari amaliyotga joriy etildi. 2010–2016-yillarda mavjud tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar, ayniqsa, sog'lom turmush va mazmunli dam olish huquqlarini ta'minlashga xizmat qildi. 2016-yildan hozirga qadar bo'lgan davrda esa yoshlarga oid siyosat strategik darajaga ko'tarilib, yangi tahrirdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, Harakatlar strategiyalari, "Yoshlar daftari", manzilli ijtimoiy yordamlar, bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash yanada tizimlashtirildi.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES:

1. Yo'ldashev A.A. XIX asr oxiri - XX asrning 20-yillarida Turkiston yoshlarining xorijda ta'lim olish masalalari. Tarix. fan. nomz. ... dis. - T., 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son.
3. Ильинский И.М. Молодежь и молодежная политика. Философия. История. Теория. М.: Голос, 2001; Корпоративное управление. Под ред. М.Г. Антонова. М. 2006 С. 12. <https://cyberleninka.ru/article/n/molodezhnaya-politika-kontsepsiya-i-m-ilinskogo/viewer>
4. Ismoilov T.I. O'zbekistonda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi [monografiya]. –T., 2021. file:///C:/Users/User/Desktop/Dissertatsiya/Monografiyalar/NamDU-ARM_7924D0%BB%D0%BB%D0%B8%D0%B3%D0%B8%D0%B3.pdf
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 80-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasini qonuni kuchga kiritish tartibi haqidagi 430-XII-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 81-modda

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevral sanasida qabul qilingan "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PF-555 sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 3-son, 132-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 31-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 37-38-son, 384-modda, 40-son, 398-modda; 2010-y., 48-son, 451-modda

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 18-mayda qabul qilingan "yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3878-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 19-20-son, 192-modda; 2017-y., 8-son, 107-modda, 37-son, 982-modda;

10. Миралиён К. А. Молодежная политика. – Душанбе: Адабиёти бачагона, 2016. — 590 с. <https://miraliyon.page/2016/10/19/%d0%bd%d0%be%d0%b2%d0%b0%d1%8f-%d0%ba%d0%bd%d0%b8%d0%b3%d0%b0%d0%bc%d0%be%d0%bb%d0%be%d0%b4%d0%b5%d0%b6%d0%bd%d0%b0%d1%8f%d0%bf%d0%be%d0%bb%d0%b8%d1%82%d0%b8%d0%ba%d0%b0/>

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 18.07.2007 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1697- qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 29-30-son, 308-modda; 2012-y., 25-son, 284-modda; 2014-y., 49-son, 585-modda; 2016-y., 42-son, 494-modda;

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 23-aprelda qabul qilingan "Toshkent shahrida "Favvoralar sayli" yoshlar ommaviy-madaniy tadbirlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 110-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 17-son, 194-modda.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida Respublika o'quvchi-yoshlar markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 115-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 19-son, 214-modda; 2016-y., 26-son, 316-modda.

14. Кирницкий В.В. Проблема формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи: диссертация...кандидата философских наук. - Москва, 2016. – 176 с. [Проблема формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи : диссертация. кандидата философских наук : 09.00.11 \(2016\) — Кирницкий В.В. — читать книгу онлайн | НЭБ \[000199_000009_008755034\]](#)

15. Mohammad Taghi Sheykhi. Sociology of Youth, 29 July 2021, Page 1-110// https://www.researchgate.net/publication/353733991_Sociology_of_Youth

16. Чирун С.Н.. Политическая активность и политическое участие молодёжи: проблемы и возможности // Вестник Томского государственного университета. –Выпуск №332, 2010. –С. 50-53. https://abis.lib.tomsk.ru/pwb/detail?db=DB_MARS10&id=RU%5CTSPUSRL%5Cmars10%5C1293

17. Минченя Е.А. Социология молодежи, ГУБПО «Белорусско-Российский университети. -Могалев: 2017. -С. 9-10. <https://u.eruditor.one/file/3862800/?ysclid=mn7gi89o6q941701406>

18. Abrorov I.J. O'zbekistonda yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki: holati va istiqbollari. Siyosiy. fan. nomz. ... dis. - T., 2023. – B. 24. <https://diss.natlib.uz/tanishish/46be99ad-c7d5-4120-8df2-40409428c723>

19. Ismoilov T.I. O'zbekistonda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi...monografiya – Toshkent 2021. – 115 b. [NamDU-ARM-7924-Узбекистонда уюшмаган ёшларнинг ижтимоий фаоллиги.pdf](#)

20. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 103-bet. <https://president.uz/oz/lists/view/111>

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF – 5106-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustdagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.08.2018-y., 09/18/669/1772-son.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martda qabul qilingan "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 152-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021-y., 09/21/152/0278-son

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 07/22/92/0046-son.

25. Cuervo, H. & Miranda, A. (2019) Youth in the Global South: An Introduction. In H. Cuervo & A. Miranda (eds) Youth, Inequality and Social Change in the Global South. https://www.researchgate.net/publication/345491420_Youth_Inequality_and_Social_Change_in_the_Global_South.
26. Youth2030: Progress Report 2025// https://www.un.org/youthaffairs/sites/default/files/202507/progress_report_2025_23-07-1.pdf?utm_source
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2025-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-222-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2025-y., 06/25/222/1067-son; 27.12.2025-y., 06/25/258/1223-son.
28. Kadirov E.O. Yoshlarning huquqiy ongi va siyosiy ma'daniyatini yuksaltirish masalalari (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida): yurid. fan. dokt. ... dis. – T., 2019. – 78 b.
29. Qozog'iston Respublikasining "Davlat yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 09.02.2015-y., № 285-V // Qozog'iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining axborot-huquqiy tizimi "Adilet". – Kirish tartibi: [adilet.zan.kz](https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1500000285) (murojaat sanasi: 26.03.2026). <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1500000285>
30. Global Employment Trends for Youth 2024: Policy objectives for youth NEETs. – Geneva: International Labour Office, 2024. <https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-employment-trends-youth-2024>
31. Daryo.uz rasmiy veb-sahifasi// <https://daryo.uz/en/2023/06/20/age-range-for-individuals-classified-as-youth-in-kazakhstan-extended-to-include-those-between-15-and-35-years-old/>
32. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sahifasi// <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/60580-o-zbekiston-respublikasida-nikohlanuvchi-erkaklarning-yoshi-bo-yicha-taqsimlanishi-365>

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL